**Results.** Chronic endometritis was diagnosed in 52% of pain cases versus 10% of controls, with *Chlamydia* (22%) and *Ureaplasma* (18%) as dominant pathogens [3]. Pain patients showed elevated CRP ( $>10$  mg/L, 58%) and IL-6 (2.3-fold vs. controls), with IL-10 suppressed by 30%, signaling immune imbalance [4]. Ultrasound detected abnormalities in 72%, but hysteroscopy confirmed 95% of cases. Multimodal therapy (antibiotics + probiotics) reduced pain scores by 70% at 6 months, versus 50% with antibiotics alone, with 75% showing histological clearance [5]. Progesterone restored cycles in 82% of cases, boosting anti-Müllerian hormone by 15%. Persistent pain in 12% linked to *Ureaplasma* resistance, highlighting diagnostic gaps.

### References

1. Cicinelli, E., Matteo, M., Tinelli, R., et al. (2015). Chronic endometritis and reproductive failure. *Fertility and Sterility*, 103(3), 674–679. DOI: 10.1016/j.fertnstert.2014.11.004
2. Howard, F. M. (2009). Chronic pelvic pain in women. *American Journal of Obstetrics & Gynecology*, 201(6), 536–543. DOI: 10.1016/j.ajog.2009.07.045
3. Moreno, I., Cicinelli, E., Garcia-Grau, I., et al. (2018). The diagnosis of chronic endometritis in infertile asymptomatic women: A comparative study of histology, microbial cultures, hysteroscopy, and molecular microbiology. *American Journal of Obstetrics & Gynecology*, 218(6), 602.e1–602.e16. DOI: 10.1016/j.ajog.2018.02.012
4. Kitaya, K., Matsubayashi, H., Yamaguchi, K., et al. (2016). Chronic endometritis: Potential cause of infertility and obstetric and neonatal complications. *American Journal of Reproductive Immunology*, 75(1), 13–22. DOI: 10.1111/aji.12438
5. McQueen, D. B., Perfetto, C. O., Hazard, F. K., & Lathi, R. B. (2015). Pregnancy outcomes in women with chronic endometritis and recurrent pregnancy loss. *Fertility and Sterility*, 104(4), 927–931. DOI: 10.1016/j.fertnstert.2015.06.044

## O'RTA MAXSUS, KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH VA OLIY O'QUV YURTLARIDA INKLYUZIV TA'LIM

Andijon davlat pedagogika instituti  
Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo`nalishi  
Talabasi: **Xaydarova Nodirabonu Xayrullo qizi**  
Ilmiy rahbar: **Oxunov Ilhomjon**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish, ayniqsa o'rta maxsus, kasb-hunarga yo'naltirish va oliy o'quv yurtlarida uni samarali joriy etish masalalari yoritilgan. Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, mavjud muammolar, ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi, pedagog kadrlar tayyorlash va jamiyatdagi ijtimoiy stereotiplarning ta'siri tahlil qilinadi. Muallif inklyuzivlikni ta'minlashda infratuzilma, metodika, ijtimoiy-psixologik yondashuv va huquqiy asoslar muhimligini asoslab beradi. Shuningdek, maqolada muammoni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyoj, o'rta maxsus ta'lim, kasb-hunar kolleji, oliy ta'lim, infratuzilma, pedagog kadrlar, ijtimoiy moslashuv, ta'lim siyosati

### **Kirish**

Hozirgi globallashuv jarayonida har bir insonning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash eng muhim vazifalardan biriga aylangan. Shu jihatdan inklyuziv ta'lim masalasi nafaqat xalqaro miqyosda, balki O'zbekistonda ham dolzarb masalaga aylangan. Inklyuziv ta'lim — bu har bir bola, shu jumladan nogironligi bor, rivojlanishida kechikishlar yoki boshqa maxsus ehtiyojga ega o'quvchilarning umumiy ta'lim tizimida o'qishini ta'minlovchi yondashuvdir. Bu ta'lim har kimga teng imkoniyat yaratadi va ularning jamiyatga to'liq integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida har bir fuqaroning ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Shu asosda so'nggi yillarda mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Ta'lim vazirligining nizomlari orqali inklyuziv ta'limni har bir ta'lim bosqichida joriy etish va takomillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilanmoqda.

### **Asosiy qism**

O'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim muassasalari jamiyatning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari uchun malakali mutaxassislar tayyorlashda asosiy o'rinni egallaydi. Shu bois, bu ta'lim bosqichida inklyuzivlikning ta'minlanishi —

maxsus ehtiyojga ega bo‘lgan yoshlarning kasb egallab, o‘z mustaqil hayotini yurita olishida muhim omil hisoblanadi. Afsuski, amaliyotda hali ham ayrim texnikum va kollejlarda bu borada muammolar mavjud: infratuzilmaning to‘liq moslashtirilmagani, maxsus metodik vositalarning yetishmasligi, pedagog kadrlarning maxsus tayyorgarlikka ega emasligi kabi omillar bu sohada inklyuzivlikni to‘liq joriy etishga to‘sqinlik qilmoqda. Pedagog kadrlar tayyorlash masalasi inklyuziv ta‘limda alohida o‘rin tutadi. Chunki inklyuziv ta‘lim faqatgina jismoniy muhitni moslashtirish emas, balki ta‘lim mazmunini, usullarini, o‘quvchi bilan ishlash uslubini ham moslashtirishni talab qiladi. Maxsus ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlashda pedagoglarning sabr-toqatli, mehribon va yuqori malakali bo‘lishi nihoyatda muhimdir. Bu esa ularni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini tubdan isloh qilishni talab qiladi.

Oliy ta‘lim tizimida ham inklyuzivlikning joriy etilishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida son jihatdan hali unchalik ko‘p bo‘lmasa-da, turli xil nogironlik darajasiga ega bo‘lgan yoshlar tahsil olmoqda. Ularning ta‘lim olish jarayonida duch kelayotgan muammolar — binolarning nogironlar aravachasida yurishga mos emasligi, dars materiallarining audio yoki Brayl yozuvlarida bo‘lmasligi, o‘qituvchilarning bu boradagi tajribasining yetarli emasligi kabi omillar samarali o‘qishni qiyinlashtirmoqda. Shuningdek, jamiyatdagi ayrim ijtimoiy stereotiplar ham inklyuziv ta‘limning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Maxsus ehtiyojga ega yoshlar ko‘pincha o‘z tengdoshlari tomonidan qabul qilinmaydi, bu esa ularning ijtimoiylashuvi va o‘zini jamiyat a‘zosi sifatida his qilishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli inklyuziv ta‘lim faqat ta‘lim muassasalarini moslashtirish emas, balki keng jamoatchilikni bu g‘oyaga ishontirishni, insoniy qadriyatlar asosida jamiyatni tarbiyalashni ham talab qiladi. Bugungi kunda davlat darajasida bu masalaga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va ularning huquqlarini ta‘minlash” milliy dasturida inklyuziv ta‘lim muhim yo‘nalish sifatida belgilab olingan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar orqali texnik yordam, tajriba almashish va innovatsion metodikalarni joriy etish ishlari olib borilmoqda. Shunga qaramay, mavjud muammolarni hal etish uchun quyidagi takliflar dolzarbdir. Birinchidan, barcha ta‘lim muassasalarida arxitektura va texnik infratuzilma inklyuzivlik tamoyillariga muvofiq rekonstruksiya qilinishi lozim. Bu nafaqat nogironlar aravachasi uchun panduslar o‘rnatish, balki maxsus liftlar, signalizatsiya tizimlari, ovozli yoki vizual ko‘rsatkichlar bilan jihozlashni ham o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, pedagog kadrlarni maxsus ehtiyojli shaxslar bilan

ishlashga tayyorlovchi dasturlar joriy etilishi kerak. Bu sohada faoliyat yurituvchi pedagoglar uchun doimiy malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yilishi, ular uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi muhim. Uchinchidan, o'quv adabiyotlari, elektron ta'lim platformalari va boshqa resurslar ham inklyuziv formatda bo'lishi zarur. Masalan, ovozli darsliklar, ishorali til materiallari, oddiylashtirilgan matnlar, Brayl yozuvida adabiyotlar ishlab chiqilishi kerak. To'rtinchidan, inklyuziv ta'limga oid ijtimoiy reklama, madaniy-tarbiyaviy tadbirlar orqali jamoatchilik ongini o'zgartirish, bu boradagi stereotiplarga barham berish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, inklyuziv ta'lim jarayoniga ota-onalar, psixologlar, tibbiyot xodimlari, nodavlat tashkilotlar, hamda ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni jalb etish orqali tizimli yondashuvni shakllantirish kerak. Bu holatda ta'lim jarayoni ko'p tomonlama qo'llab-quvvatlanadi va natijadorlik sezilarli darajada oshadi.

**Xulosa** qilib aytganda, o'rta maxsus, kasb-hunarga yo'naltirish va oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirish — bu insoniylik, adolat va taraqqiyot sari tashlangan muhim qadamdir. Har bir inson, u qanday holatda bo'lmasin, ta'lim olishga va jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga haqlidir. Inklyuziv ta'lim esa mana shu huquqni amalda ta'minlovchi samarali vositadir. Buning uchun har bir pedagog, har bir ta'lim muassasasi, har bir davlat xizmatchisi va, eng muhimi, har bir fuqaro o'z hissasini qo'shmoq'i lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2021.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Qabul qilingan sana: 23.09.2020 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4860-son qarori "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash va ularning huquqlarini ta'minlash strategiyasi" – 2020 y.
4. UNESCO. Inclusive Education: The Way of the Future. International Conference on Education, Geneva, 2008.
5. A. Qodirov. Ta'limda inklyuziv yondashuv: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2022.

## VII GURUX ASOSIY GURUXCHA ELEMENTLARI. NODIR GAZLARNING OLINISHI VA XOSSALARI

Andijon davlat pedagogika instituti  
Tabiiy va Aniq fanlar fakulteti Kimyo yo'nalishi  
Talabasi: **Rahmatjonova Zarina Elyorbek qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada VII guruh asosiy guruhcha elementlari — galogenlar (ftor, xlor, brom, yod, astat) ning umumiy xossalari, tabiatdagi tarqalishi, kimyoviy va fizik xossalari, shuningdek, ular bilan o'xshash bo'lmagan, lekin davriy jadvalda ular bilan bir guruhda joylashgan nodir gazlar (geliy, neon, argon, kripton, ksenon va radon) ning olinishi, qo'llanilishi va xossalari yoritiladi. Shuningdek, bu elementlarning fan va texnologiyadagi o'rni haqida ham fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** VII guruh elementlari, galogenlar, ftor, xlor, brom, yod, astat, nodir gazlar, inert gazlar, geliy, neon, argon, kripton, ksenon, radon, kimyoviy xossalar, fizik xossalar, reaktivlik, elektron tuzilma, fraksiyaviy distillatsiya, havodan ajratish, tabiiy gaz.

### **Kirish**

Kimyoviy elementlarning xossalari va ularning davriy jadvaldagi o'rni o'rtasidagi bog'liqlik Mendelejev davriy qonuni asosida chuqur o'rganiladi. VII guruh asosiy guruhcha elementlari - galogenlar va VIII guruh elementlari - nodir gazlar davriy jadvalda ketma-ket joylashgan bo'lishiga qaramay, ularning fizik va kimyoviy xossalari mutlaqo farq qiladi.

### **Asosiy qism**

Galogenlar — ftor (F), xlor (Cl), brom (Br), yod (I) va astat (At) — kuchli reaktivlikka ega bo'lgan nometall elementlardir. Ular o'ziga xos xiralik beruvchi, kuchli oksidlovchi va biologik faol moddalar sifatida mashhur. Tashqi energetik qatlamida yetti valensiya elektroni mavjud bo'lib, ular kimyoviy reaksiya vaqtida bitta elektronni olishga intiladilar. Shu sababli galogenlar ko'plab organik va noorganik birikmalarda faol ishtirok etadi. Boshqa tomondan, nodir gazlar — geliy (He), neon (Ne), argon (Ar), kripton (Kr), ksenon (Xe) va radon (Rn) — to'liq to'yingan tashqi elektron qavatga ega bo'lib, kimyoviy jihatdan juda sust faoliyat ko'rsatadi. Ularning inertligi sababli uzoq vaqt davomida ular bilan birikmalar hosil bo'lmaydi deb hisoblangan. Faqat XX asrda ba'zi nodir gazlarning (ayniqsa, ksenon va kriptonning) birikmalari olinib, bu nazariya qisman inkor etildi. Ushbu maqolada VII guruh asosiy guruhcha elementlarining (galogenlarning) asosiy fizik-kimyoviy xossalari, tabiatdagi uchrashi, olinishi va qo'llanilishi bilan bir qatorda nodir

gazlarning ham muhim tomonlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ularning zamonaviy texnologiyalarda tutgan o‘rni, sanoatdagi qo‘llanilishi va ilmiy ahamiyati haqida tahliliy fikr yuritiladi.

Galogenlarning asosiy vakillari quyidagilardir:

Ftor ( $F_2$ ): eng faol nometall, sariq rangli gaz. Juda kuchli oksidlovchi.

Xlor ( $Cl_2$ ): sarg‘ish-yashil gaz, sanoatda keng qo‘llaniladi.

Brom ( $Br_2$ ): qizg‘ish jigarrang suyuqlik, bug‘lari zaharli.

Yod ( $I_2$ ): binafsha kristallar, antiseptik xossaga ega.

Astat (At): radioaktiv element, kam uchraydi.

Galogenlar ko‘plab birikmalar tarkibiga kiradi, jumladan kislorodli va vodorodli birikmalari muhim ahamiyatga ega. Ular dezinfeksiya, tibbiyot, kimyo sanoati va pestitsidlar ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi.

Nodir gazlar

Nodir gazlar - VIII guruh elementlari bo‘lib, inert xossalarga ega. Ular tashqi elektron qavati to‘liq bo‘lganligi sababli boshqa moddalarga nisbatan sust reaksiya qiladi. Bular — geliy (He), neon (Ne), argon (Ar), kripton (Kr), ksenon (Xe) va radon (Rn).

Nodir gazlar tabiatda oz miqdorda mavjud bo‘lsa-da, ular asosan havoning tarkibida uchraydi. Har bir nodir gaz turlicha usullar bilan olinadi:

1. Havoni suyuqlantirib, fraksiyaviy distillatsiya qilish orqali: Bu usulda atmosfera havosi maxsus qurilmalarda bosim ostida sovutilib suyuqlantiriladi. Suyuqlangan havoning haroratga bog‘liq ravishda bug‘lanishi natijasida turli gazlar bosqichma-bosqich ajratib olinadi. Geliy, neon, argon, kripton va ksenon shu tarzda olinadi. Bu usul sanoatda eng keng tarqalgan hisoblanadi.

2. Tabiiy gazlardan ajratib olish (geliy uchun): Ba’zi tabiiy gaz konlarida geliy yuqori konsentratsiyada mavjud bo‘ladi. Bunday hollarda geliy tabiiy gazlardan fizik-kimyoviy usullar yordamida ajratib olinadi.

3. Radioaktiv parchalanish mahsuli sifatida (radon uchun): Radon radioaktiv elementlar, masalan, uran va toriy ning parchalanishidan hosil bo‘ladi. Radon yer qatlamidan tabiiy yo‘l bilan ajralib chiqadi, lekin juda oz miqdorda uchraydi. Uni maxsus radioaktiv laboratoriyalarda ajratib olish mumkin.

Xossalari: Kimyoviy jihatdan inert, harorati past bo‘lgan holatda suyuqlanadi, elektr tokini yorituvchi sharoitda o‘tkazadi (neon lampalar).

Qo‘llanilishi:

Geliy – sovitish tizimlarida, aerostatlarda.

Neon – reklama yoritgichlarida.

Argon – payvandlash jarayonlarida, lampalarda.

Kripton va ksenon – yoritgichlar, lazerlar, ionlashtiruvchi qurilmalarda.

Radon – radioaktiv tibbiyotda cheklangan holda.

Nodir gazlar esa, inertligi, barqaror elektron tuzilmasi va sust reaktivligi bilan ajralib turadi. Ulardan ayrimlari (ayniqsa, ksenon va kripton) ekstremal sharoitda kimyoviy birikmalar hosil qila olsa-da, umumiy holatda ular faolsiz hisoblanadi. Ularning yorug‘lik chiqarish, issiqlik izolyatsiyasi, elektr razryadlar va tibbiyotdagi qo‘llanilishi zamonaviy texnologiyalar uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu ikki guruh elementlari o‘zlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan zamonaviy fan va texnikaning turli sohalarida keng foydalanilmoqda. Ularning chuqur o‘rganilishi va to‘g‘ri qo‘llanilishi kimyo fanining amaliy va nazariy rivojiga katta hissa qo‘shadi.

**Xulosa:** VII guruh asosiy guruxcha elementlari - galogenlar va nodir gazlar o‘ziga xos xossalari, reaktivlik darajasi hamda qo‘llanish sohaları bilan ajralib turadi. Galogenlar kuchli reaktiv bo‘lsa, nodir gazlar esa inertligi bilan ajralib turadi. Ikkala guruh ham sanoat, tibbiyot, ilm-fan va texnologiyada keng qo‘llaniladi. VII gurux asosiy guruxcha elementlari galogenlar va VIII guruh elementlari nodir gazlar davriy jadvalda bir-biriga yaqin joylashgan bo‘lishiga qaramay, ularning fizik-kimyoviy xossalari, reaktivligi va qo‘llanilish sohaları tubdan farq qiladi. Galogenlar yuqori faollikka ega, kuchli oksidlovchi xossalarga ega bo‘lgan nometall elementlar bo‘lib, ko‘plab muhim kimyoviy birikmalarning tarkibiga kiradi. Ular tibbiyot, dezinfeksiyalash, kimyo va farmatsevtika sanoatida keng qo‘llaniladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. To‘xtayev, N. X. (2018). Umumiy kimyo. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti.
2. Akramov, N. A., & Tursunov, X. F. (2015). Noorganik kimyo. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Mirzayev, A. M. (2014). Kimyo faniga kirish. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
4. Yunusov, B. (2013). Kimyo va uning ahamiyati. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.

## REQUIREMENTS FOR THE PRACTICE OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

**Odamova O'g'iljon Kenjayevna – Senior Lecturer, Urgench State University**

**Email:** [ogiljon-odamova@gmail.com](mailto:ogiljon-odamova@gmail.com) | **Tel:** +998942302875

### **Annotation:**

This article emphasizes that the future of the developing generation, a creative and progressive youth, is inseparable from a comprehensive and socially relevant education system. The success of such a system is determined by how effectively the organized learning process contributes to the development of each student's personality and their role in societal advancement. Today, fulfilling this crucial task without psychological support is unimaginable. In this regard, it is underlined that practical psychologists must possess sufficient psychological knowledge and experience to meet the requirements set for educational institutions.

**Keywords:** Psychological service, success, gifted children, talent, guideline, empirical, practical, theoretical, evidence, educational process.

The future of the younger generation, who are builders of tomorrow, cannot be imagined without the successful implementation of an educational system that comprehensively meets the requirements of social progress. The success of education is determined by the contribution of the organized learning process to the development of each student's personality and their role in social progress. This important task is inconceivable today without psychological services.

Psychologists play a key role in preparing children for school, improving academic tasks, identifying individual psychological traits and interests, guiding them towards suitable careers, supporting self-awareness, and addressing issues related to the educational process, school communities, and teacher-student dynamics. The achievements of psychological science in these areas are evident.

For instance, I.V. Dubrovina's research provides theoretical and practical foundations for organizing psychological services in schools. L.I. Bozhovich's empirical classification of personality development stages during school years, A.G. Asmolov's analysis of student activity and attitudes, D.I. Feldshtein's principles of social development in ontogenesis, Ye.A. Klimov's career guidance techniques, V.S. Merlin's insights on individual and social-typical psychological traits of students, and E.G'. G'oziev's directives on psychological services in education all contribute significantly to the field.

Moreover, M.G. Davletshin analyzes the current status and objectives of psychological services in Uzbekistan, while G'.B. Shoumarov explores innovations, issues, and solutions in the public education system's psychological services. Notable works also include SH.R. Baratov's studies on psychological practices in education and B.R. Qodirov's theoretical-practical approaches to identifying and nurturing gifted children [2, p. 56].

Importantly, the development and approval by the Ministry of Public Education of Uzbekistan of the "Regulations on Psychological Services in the Public Education System and the Certification and Training of Psychologists" marks an official institutionalization of psychological services, creating significant social relevance. These regulations serve as a guide for defining the goals, content, importance, and practical directions of psychological services in educational institutions.

Based on these guidelines, psychological service systems have been established in many schools across the country. Their primary purpose is to deeply understand and support students' development, reinforcing the critical importance of human capital in every era and state.

The success of this mission heavily relies on the psychological approach applied to each student and class. The "Regulations on Psychological Services" in general education schools can be interpreted as a strategy to enhance students' psychological protection. The implementation includes helping students develop self-awareness, utilize their potential, manage possible conflicts and crises, and strengthen psychological resilience [4, p. 97].

Thus, today's school psychologists focus on the following major areas:

### **I. Scientific-Theoretical Activities:**

- Understanding methodological bases of psychological services.
- Identifying effective psychological methods and principles.
- Mastering general, developmental, educational, and medical psychology.
- Familiarity with Uzbekistan's psychological service concept.
- Planning and executing personal academic growth strategies (daily, weekly, monthly, annual).

### **II. Organizational Activities:**

Developing and approving work plans (daily to yearly).

Equipping psychological service rooms.

Creating "Student Psychological Profiles" and planning based on the results.

Coordinating with parents, class teachers, subject teachers, and school administration.

Planning for individual and group interventions (e.g., leaders, isolated students).

Managing psychological components of student admission and career guidance [5, p. 77].

### **III. Research Activities:**

Applying psychological tools and interpreting data.

Studying developmental patterns and student motivation.

Identifying and addressing positive/negative influences on student engagement.

Determining psychological factors influencing academic performance.

Conducting observation-based research and preparing conference presentations.

### **IV. Methodological Activities:**

- Using recognized, modified psychological methods.

- Selecting approaches based on individual student characteristics.

- Organizing social-psychological environments for interpersonal relations.

- Planning psychodiagnostic, preventive, and corrective interventions.

- Regularly evaluating the effectiveness of applied methods.

### **V. Practical Activities:**

- Participating in school admissions.

- Identifying talents and suggesting appropriate educational paths.

- Providing career guidance through targeted interventions.

- Analyzing interpersonal relationships and providing recommendations.

- Diagnosing individual characteristics and implementing targeted activities.

- Assisting with extracurricular placements and differentiated instruction.

- Offering psychological insights on lessons and advising teachers.

- Raising parental psychological awareness.

- Supporting children with intellectual or speech challenges.

- Contributing to school curriculum design.

- Promoting student self-awareness and effective learning styles.

- Maintaining emotional well-being and positive self/social perceptions.

- Monitoring students' social needs and ensuring fulfillment.

- Observing balance between student activity and potential.
- Ensuring alignment between social attitudes and engagement [7, p. 98].

In summary, all these activities reflect the work scope of practicing psychologists in schools. Effective implementation of these tasks, including diagnostics, education, prevention, correction, and counseling, as outlined in the “Regulations,” is vital. Furthermore, expanding activities to include psychological resilience enhancement is recommended.

Therefore, to meet institutional requirements, school psychologists must be well-versed and experienced in psychological practices.

### References

1. M.G. Davletshin, S.M. To'yuchiyeva. “Umumiy psixologiya”. –T. 2002.
2. M.G. Davletshin taxririda. “Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya”. – T. 2004.
3. V.M. Karimova. “Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot”, -T. “O'qituvchi”. 1999.
4. V.M. Karimova, F.A. Akromova. “Psixologiya”. –T. “O'qituvchi”. 2000.
5. Алешина Ю.Е., Данилин К.Е., Дубовская Е.М. (исцпрактикум по социальной психологии: опрос, семейное и индивидуальное консультированием ., 1989.
6. Дубровина И.В. Школьная психологическая служба. М., 1991.
7. Nishonova.Z.T. Psixologik xizmat.Psixokorreksiya. T. 2019.493 b.

## ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATI: BADIY TAFAKKUR VA MILLIY G'URUR TIMSOLI

**Buxoro Davlat Universiteti Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi  
Ahmadova Mohinur Anvar qizi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning adabiy merosi, uning o'zbek she'riyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, milliy g'oya va istiqlol ruhini ifodalovchi she'rlari tahlil qilinadi.

**Abstract.** This article analyzes the literary heritage of the People's Poet of Uzbekistan, Abdulla Oripov, his contribution to the development of Uzbek poetry, and his works that express national ideas and the spirit of independence.

**Аннотация.** В данной статье анализируется литературное наследие Народного поэта Узбекистана Абдуллы Арипова, его вклад в развитие узбекской поэзии, а также творчество, отражающее национальную идею и дух независимости.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Oripov, o'zbek she'riyati, badiiy tafakkur, milliy g'urur, vatanparvarlik, "Tilla baliqcha", diniy va madaniy qadriyatlar.

**Kirish.** O'zbek adabiyoti, xususan she'riyatining zabardast namoyandalaridan biri, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning she'riyati nafaqat yuksak badiiy saviyasi, balki undagi falsafiy teranlik va milliy g'urning badiiy ifodasi bilan ajralib turadi. Shoir o'z asarlari orqali nafaqat san'atni, balki xalqining ruhiyati, or-nomusi, erk va ozodlik g'oyalarini yuksak pardalarda tarannum etdi. Uning she'rlari yangi o'zbek she'riyatida o'zbek xalqining ma'naviy boyligi, milliy o'zlikni anglash, badiiy tafakkur va g'urur manbayiga aylandi. Kamdan kam shoirga nasib etadigan davlat madhiyasini yaratishdek baxtga erishgan ijodkor xususida akademik Izzat Sulton shunday deydi: "Abdulla Oripovning she'riyatimiz osmonida paydo bo'lishini chaqmoqqa o'xshatadilar. To'g'ri! Ammo chaqmoq o'chadi, qudratli iste'dod sochgan nur esa – umrboqiy! Abdulla Oripov she'riyatining dovrug'ini momaqaldiroqqa o'xshatadilar. Rost! Ammo momaqaldiroq guldurosi tinadi, qalblarni maftun etgan she'riyatning sadosi esa – abadiy!" Darhaqiqat, Abdulla Oripov she'riyati o'zbek adabiyotining yorqin sahifalarini tashkil qiladi.

**Asosiy qism.** Abdulla Oripov ijodi butun xalqning ozodlik sari intilishi bilan chambarchas bog'liq. Yurtimiz hali mustaqilligini e'lon qilmagan davrlardayoq,

qo‘rqmasdan, “Ozod Respublikam – Jumhuriyatim!” deya baralla, faxr ila so‘zlay olgan. Uning she‘rlari xalqni mustaqil, ozod va farovon kelajakka chorlovchi g‘oyalar bilan to‘yintirilgan:

Yetti Haj savobin topgum begumon  
Seni bir kuylasam, ey Hurriyatim!  
O‘zbekiston yurtim, Vatan jonajon,  
Ozod Respublikam – Jumhuriyatim!

Ushbu satrlardan shoirning o‘z Vatani mustaqilligiga bo‘lgan ishonchi, millat va yurtga nisbatan cheksiz muhabbati hamda milliy g‘urur hissining ifodasi yaqqol sezilib turadi.

Shunday ezgu xislatlar egasi, qolaversa, haqgo‘y va millatparvar bo‘lganligi sababli shoir tez orada xalq ko‘nglidan o‘rin egallaydi. Jamiyatning turli ijtimoiy qatlamidagilar shoirning mana shunday fazilatlari tufayli ham unga boshqacha hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘ladilar. Abdulla Oripov qatnashgan davralarda xalqning nafaqat shoir ijodi, uning insoniylik fazilatlari ham ulug‘lanib, katta hurmatga sazovor bo‘la boshlaydi. Shoir xalqning bunday ardoqlashiga ming bora qulluq qilib chuqur minnatdorchiligini ifoda etadi:

Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq...  
Paxtakorlar va ishchilar pisand qildilar.  
Ziyolilar, yumushchilar pisand qildilar,  
Studentlar, to‘quvchilar pisand qildilar,  
Maktabdagi o‘quvchilar pisand qildilar,  
Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq.

Xalqning har bir vakili, paxtakordan tortib, maktab o‘quvchisigacha shoirni pisand qilishi, ardoqlashi, shubhasiz, shoirning o‘tkir qalam kuchi har bir doiraning qalbini to‘lqinantirganidan dalolatdir.

Shuningdek, tug‘ma iste‘dod egasi samimiy hislarga to‘lib toshgan qalbi va o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbati va qayg‘urish tuyg‘usi sababli el orasida obro‘ topgan. Abdulla xalq roziligi va yo noroziligining ham hayotimizga ta’siri yuqori ekanligini aytib o‘tadi:

El qo‘llasa, azizim, omon bo‘lsak, ajabmas  
Qo‘llamasa – rang-ro‘yi somon bo‘lsak, ajabmas.  
Elni bizdan qizg‘anib so‘z aytuvchi zotlar bor,  
Ular uchun bir umr yomon bo‘lsak, ajabmas.

Ushbu bir banddan iborat she‘rning o‘zidayoq shoirning jiddiy falsafiy qarashlari namoyon bo‘ladi. She‘r zamonaviy jamiyatda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan: odamlar ko‘pincha boshqalarning gapiga qarab baho beradi.

Shoirning falsafiy yondashuvi esa xalq roziligi muhim, lekin ba’zida adashgan yoki noto’g’ri yo’lga kirib qolgan odamlarning yomon so’zlari ortidan ham insonlar xalq ko’ziga yomon ko’rinishi mumkin. Misralarda shoir buning hayot haqiqatlaridan biri ekanligini uqtirmoqchi bo’ladi.

Abdulla Oripov she’rlari sodda, xalqchil yozilgan bo’lsa-da, ularda chuqur falsafiy ma’no, axloqiy qadriyat va g’oyalar, yuksak poetik mazmun mujassamdir. Fikrimizning tasdig’ini shoirning she’riyatga qadam qo’yish davrining ilk yillaridayoq yozilgan “Tilla baliqcha” she’ri misolida ko’rishimiz mumkin. Tilla baliqcha dunyoga keldi-yu, og’ir muhit uni o’z girdobiga oldi. Qizig’i shundaki, u boshqa maskanlarni ko’rmagani bois shu muhitga ko’nikdi va sokingina yashay boshladi. Ammo isyonkor shoir qalbi bu holga ko’nikolmadi:

“Menga alam qilar, tilla baliqcha  
Bir ko’lmak hovuz deb bilar dunyoni”,

deya hayqirdi u...

Shu o’rinda ramziy ifoda sifatida nega aynan “tilla baliqcha” atamasi tanlanganligi haqida savol tug’ilishi mumkin. “Tilla” so’zi qadimdan boylik, qimmatbaho, noyob va bebaho narsani ifodalaydi, she’rdagi baliqchanning tilla deb atalishi – uning aslida noyob salohiyatga ega, yuksak imkoniyatlar bilan tug’ilgan mavjudot ekanini anglatadi. Abdulla Oripov bu orqali insonning tug’ma iste’dodi va salohiyatini ramziy ma’noda ifodalaydi: har bir inson “tilla baliqcha” kabi qimmatli, ammo imkoniyatlardan foydalanmasdan tor doirada yashab qolsa, bu juda achinarli... Bu she’r 1965-yilda yozilgan bo’lib, o’sha paytda uni tahlil qilgan ko’pgina adabiyotshunos olimlar she’rda shoir Sobiq Ittifoq davrida uning tarkibida bo’lgan O’zbekistonni nazarda tutgan deya talqin qilishgan.

Serqirra ijod sohibi Abdulla Oripov she’riyatida diniy va madaniy qadriyatlarni yuksak badiiylilikda ifodalagan ko’plab she’rlar ham mavjud. “Hikmat sadolari” va “Haj daftari” turkum she’rlari shular jumlasidandir. Unda Allohning Rasuli – Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.) siymosi gavdalantirilgan ko’plab she’rlar uchraydi. Shoir ushbu she’rlari orqali muborak zot sifatlarini kitobxonga o’rnak qilib, o’z-o’zimizni nazorat qilishga, ayni damda, qaysi yo’lda borayotganimizni o’ylab olishga undaydi:

Haq sevgay o’ziga yor bandalarni,  
Dilida iymoni bor bandalarni  
Takabbur boshlarni pastroqqa egsa,  
Yuksakka ko’targay xor bandalarni.

Abdulla Oripov lirikasi nafaqat yoshlar, balki kattalar uchun ham ma’naviy ozuqadir. Uning har bir satrida insoniyatga bo’lgan muhabbat, millatga bo’lgan

sadoqat, Vatanga bo‘lgan cheksiz mehr barq urib turadi. U nafaqat o‘z davrining, balki abadiyatning shoiri bo‘lib qoldi. Abdulla Oripovning badiiy tafakkuri, zamonlar osha yashovchanlik ruhi, milliy g‘ururi esa har bir o‘zbekning qalbida yashaydi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, shoir uchun she‘r oddiy so‘zlar to‘plami emas, balki qalb hayqirig‘i, oniy nidosi, xalq dardining in‘ikosidir. Abdulla Oripov she‘riyati o‘zbek milliy adabiyotining eng yuksak cho‘qqilaridan biri bo‘lib, xalqning yuragidan joy olgan, milliy tafakkur va g‘ururni uyg‘otuvchi badiiy meros sifatida doimo dolzarb bo‘lib qoladi. Shoirning ovozi hali uzoq yillar davomida bizni o‘tmish, bugun va kelajak bilan bog‘lab turadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Орипов А. Ишонч кўприклари. Шеърлар, таржималар, драматик дoston. – Т.: Ф.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 240 б.
2. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Иккинчи жилд. Шеърлар ва дostonлар. –Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 496 б.
3. Орипов А. Йиллар армони. –Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 247.
4. Orokova N. Image of flowers in classical lyrics //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – Т. 4. – №. 11. – С. 410-416.
5. Yoriyevna O. N. Yangi o‘zbek she‘riyatida qo‘llangan daraxt obrazlari ifodasida an‘ana va novatorlik //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 386-391.
6. Yorievna, U. N., & Narzulloyevna, M. L. (2024). Interpretation of the Image of Animals in Abdulla Oripov’s Poetry. International Journal of Formal Education, 3(4), 40–45. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2478>
7. Yoriyevna O. N. et al. Zamonaviy o'zbek she'riyatida floristik obrazlar talqini //scientific approach to the modern education system. – 2024. – Т. 2. – №. 24. – С. 26-32.
8. O‘roqova Nafosat Yoriyevna. (2024). Zamonaviy she‘riyatda lola va lolaqizg‘aldoq obrazlarining ramziy ifodalari. *Hamkor Konferensiyalar*, 1(2), 223–228. Retrieved from <https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/167>

9. O'roqova, N. (2024). Abdulla Oripov lirikasida ramziy-floristik obrazlar ifodasi. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(3), 193-199.

10. O'roqova, Nafosat, Hayot Latipov, and Nigora Normuratova. "The role of flora and fauna in expressing the artistic view of the universe." *E3S Web of Conferences*. Vol. 587. EDP Sciences, 2024.

**O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXSHUNOSLIGIDA QO‘QON XONLIGI  
TARIXI VA MA‘NAVIY MEROSI MASALALARINING O‘RNI**

**МЕСТО ВОПРОСОВ ИСТОРИИ И ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ  
КОКАНСКОГО ХАНСТВА В ИСТОРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ  
УЗБЕКИСТАНСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ**

**THE PLACE OF THE ISSUES OF THE HISTORY AND SPIRITUAL  
HERITAGE OF THE KOKAN KHANATE IN THE HISTORICAL  
STUDIES OF UZBEKISTAN STATESHIP**

**G.S.Madraximova**

O‘R Qurolli Kuchlari Akademiyasi  
Milliy iftixor va harbiy Vatanparvarlik  
kafedrasi professori, tarix fanlari  
nomzodi, dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek davlatchiligi tarixida Qo‘qon xonligi davridagi madaniy merosni ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Nazariy asoslari sifatida tarixshunoslik, madaniyatshunoslik, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi nazariyasi, strukturalizm, tarixiy-rekonstruktiv yondashuv va ijtimoiy konstruktivizmga asoslanishiga e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarixiy meros, sivilizatsiya, tarixiy-rekonstruktiv, Arxiv hujjatlari, sotsiomadaniy, dekonstruksiya, artefaktologik metod

**Аннотация:** В статье научно анализируется культурное наследие периода Кокандского ханства в истории узбекской государственности. Обращается внимание на ее теоретические основы, базирующиеся на историографии, культурологии, теории столкновения цивилизаций, структурализме, историко-реконструктивистском подходе, социальном конструктивизме.

**Ключевые слова:** историческое наследие, цивилизация, историко-реконструкционный, архивные документы, социокультурный, деконструкция, артефактологический метод

**Annotation:** This article scientifically analyzes the cultural heritage of the Kokand Khanate in the history of Uzbek statehood. The theoretical foundations are

based on historiography, cultural studies, the theory of the clash of civilizations, structuralism, the historical-reconstructive approach and social constructivism.

**Keywords:** historical heritage, civilization, historical-reconstructive, archival documents, sociocultural, deconstruction, artifactological method

Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy jarayonlarida Qo‘qon xonligi davrining madaniy merosi, muhim o‘rin tutgan bo‘lib, murakkab ijtimoiy-siyosiy kontekstda shakllangan, boy ma‘naviy va estetik qatlamlarni o‘z ichiga olgan muhim ilmiy tadqiqot obektidir. Ushbu tarixiy merosni o‘rganishda nazariy-metodologik yondashuvning kompleksligi, uning ijtimoiy-falsafiy, tarixiy-madaniy, sivilizatsion va epistemologik asoslari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Qo‘qon xonligi madaniyati – bu faqat tarixiy voqealar ketma-ketligi emas, balki u o‘ziga xos tafakkur uslubining, davr ma‘naviyatining, din, san‘at, til, adabiyot va ilm-fanning uzviy uyg‘unlashgan shaklini aks ettiruvchi murakkab axboriy-tarixiy fenomen hisoblanadi. Avvalo, Qo‘qon xonligi davridagi madaniy merosni ilmiy jihatdan tadqiq etish nazariy asoslari sifatida tarixshunoslik, madaniyatshunoslik, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi nazariyasi, strukturalizm, tarixiy-rekonstruktiv yondashuv va ijtimoiy konstruktivizmga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur merosni faqatgina o‘tmishning muzeylashgan namunasi emas, balki dinamik, muloqotga kirishuvchi, ijtimoiy ongning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi kompleks tizim sifatida talqin qilish lozim bo‘ladi.

Qo‘qon xonligi davridagi madaniyatni o‘rganishda tarixiy-konseptual yondashuv muhim o‘rin tutadi. Bu esa,

*birinchidan*, xonlikda shakllangan diniy-falsafiy tafakkur asosida shakllangan ma‘naviy diskurslarni tahlil qilishni talab qiladi.

*Ikkinchidan*, bu madaniyat o‘zining ijtimoiy tizimida qadimiy turkiy va islomiy sivilizatsiya qadriyatlarini o‘zaro uyg‘unlashtira olgan, shu bois Qo‘qon xonligi madaniy merosi o‘zida ikki yirik madaniy maydonning kesishmasini aks ettiradi.

Metodologik jihatdan esa, Qo‘qon xonligi madaniyatini o‘rganishda tarixiy-muqoyasaviy tahlil, sotsiomadaniy dekonstruksiya, kontekstual germenektika, artefaktologik metod, arxivshunoslik va ikonologik tahlil usullarining uyg‘un qo‘llanilishi dolzarbdir. Chunki xonlik davrida yaratilgan yodgorliklar – masalan, Qo‘qon madrasalari, saroylari, xattotlik namunalari, qo‘lyozmalar, karvonsaroylar, zarduzlik va naqshinkorlik san‘ati – bularning barchasi nafaqat estetik qiymatga, balki ijtimoiy-axloqiy diskursni ham uzviy tarzda mujassamlashtirgan.

Qo‘qon xonligi davri madaniy merosini o‘rganish, avvalo, ob‘ektning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda multidisiplinar va transdisiplinar yondashuvni talab qiladi. Bu esa tarix, falsafa, arxeologiya, san‘atshunoslik, sotsiologiya, antropologiya va muzeyshunoslik sohalarini birlashtirgan holda ilmiy xulosalarning aniq, asosli va puxta bo‘lishini kafolatlaydi. Shu jihatdan, ushbu merosni faqat tarixiy “xotira” emas, balki bugungi ijtimoiy-madaniy identitetni shakllantirishda hal qiluvchi resurs sifatida tahlil qilish lozim. Ayniqsa, milliy uyg‘onish, tarixiy ong va madaniy mustaqillik jarayonlarida Qo‘qon xonligi madaniy merosini o‘rganish nazariy-metodologik jihatdan dolzarb va strategik ahamiyatga ega.

Qo‘qon xonligi tarixi va ma‘naviy merosining o‘zbek tarixshunosligidagi o‘rni va tahlili, milliy g‘oya va tarixiy xotiramizni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mavzudagi tadqiqotlar nafaqat davlatchilik an‘analari, balki madaniy, adabiy va ma‘naviy meros nuqtai nazaridan ham katta ilmiy ahamiyatga egadir. Qo‘qon xonligi XIX asrdagi Markaziy Osiyo tarixidagi yirik davlatlardan biri sifatida turli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni o‘zida mujassam etgan. Bu davlatning tarixi nafaqat turli rasmiy hujjatlar va tarixiy manbalarda, balki zotan xalq xotirasida ham chuqur saqlangan.

Qo‘qon xonligining tarixshunoslikdagi o‘rni, avvalo, uning mustaqil davlat sifatida shakllanish jarayonlarini o‘rganish bilan boshlanadi. Arxiv hujjatlarining tahlilidan ma‘lum bo‘lishicha, xonlikning siyosiy tuzilishi va ichki boshqaruv tizimi murakkab va rivojlangan bo‘lgan. Xonlikdagi markazlashgan boshqaruv, mahalliy amaldorlar tizimi va moliya-iqtisodiy mexanizmlar uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynagan.

Ma‘naviy meros masalasiga kelganda, Qo‘qon xonligi davrida diniy va dunyoviy bilimlarning uyg‘un rivoji kuzatiladi. Bu davrda ishlab chiqilgan qo‘lyozmalar, devonlar va tarixi asarlar xalqning ma‘naviy ehtiyojlariga mos ravishda yaratilgan va hozirda ham yuksak tarixiy qiymatga ega. Ishoqxon Ibrat, Mirzo Olim Toshkandiy, Mullo Olim Hojiy kabi mualliflar o‘z asarlari orqali Qo‘qon xonligining ma‘naviy yuzi va tarixiy voqeligini batafsil yoritganlar. Ta‘kidlash kerakki, Qo‘qon xonligi tarixi va merosi O‘zbekiston tarixshunosligida murakkab jarayon sifatida qaraladi. Bu jarayonda arxiv materiallari, qo‘lyozmalar, muzey fondlari va turli ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivida saqlanayotgan hujjatlar xonlikdagi siyosiy o‘zgarishlar va ularning aholining turmush tarziga ta‘sirini ochib beradi. Shu bilan birga, Turkiston general-gubernatorligi bosmaxonasida nashr etilgan manbalar xonlik va Rossiya imperiyasi munosabatlari tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Qo‘qon xonligida ta‘lim, adabiyot va san‘at sohalaridagi rivoj ham tarixshunoslikda alohida e‘tiborga sazovor. Xonlar tomonidan madrasalar, kutubxonalar va masjidlar qurilishi ta‘lim taraqqiyotini ta‘minladi. Misol uchun, Qo‘qon Adabiyot muzeyi va O‘lkashunoslik muzeyi fondlarida saqlanayotgan qo‘lyozmalar xonlikning ma‘naviy merosi to‘g‘risida bebaho ma‘lumotlar taqdim etadi. Qo‘qon xonligi tarixi va ma‘naviy merosi o‘zbek tarixshunosligida murakkab, lekin muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani shakllantirish va ma‘naviy qadriyatlarni tiklashda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston madaniy merosining dunyoning nufuzli muzeylarida jumladan, Rossiyaning Sankt-peterburg shahrida, saqlanib kelinayotganligini alohida e‘tirof etish mumkin. Ushbu muzeylardagi Qo‘qon xonligi madaniyatiga tegishi bo‘lgan xalq san‘atiga, hunarmandchilikka oid noyob ashyolar muhim ahamiyatga ega. “O‘zbekiston madaniy merosi” ning “Din tarixi davlat muzeyi to‘plami” da ham aynan Qo‘qon xonligi davriga oid bir qancha hujjatlar mavjud. Ularda “XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mavjud bo‘lgan” “maktablar dindorlar va hayr-ehson qiluvchi boy kishilar mablag‘lari hisobidan kun ko‘rganlik” lari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari ushbu muzeyda Qo‘qon xonligiga tegishli ganch o‘ymakorligi, tasviriy san‘at, kulolchilik haqida ham ko‘pgina materiallar mavjud.

Mustaqillik yillarida bir qator tarixchi, san‘atshunos va muzeyshunos olimlar tomonidan madaniy merosni muzeylashtiriga oid tadqiqot, adabiyotlar hamda davriy matbuot materiallari tayorlandi. O‘zbekiston madaniy merosi bilan bog‘liq muzeylarni mustaqillik davridagi faoliyati va taraqqiyoti bo‘yicha L.Mankovskaya, J.Ismoilova, M.Bekmurodov, M.Rashidova, R.Almeyer, D.Kuryazova, G.Fuzailova, M.Hasanovning asarlari mavjud. Mustaqillik davridagi muzeylar faoliyati va taraqqiyoti M.Isakovning nomzodlik dissertatsiyasida arxiv ishi va muzey ishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik O‘zbekiston arxiv fondlarini yaratish misolida bayon etilgan.

Xulosa qilganda, o‘zbek davlatchiligi tarixshunosligida Qo‘qon xonligi tarixi va ma‘naviy merosining alohida o‘rni bor. Shu sababli Qo‘qon xonligining XVIII asrni ikkinchi yarmi va XIX asrdagi ma‘naviy, madaniy jarayonlari, ularni muzeylashtirish tamoyillarini tarixiy yo‘sinda alohida tadqiqot obekti sifatida o‘rganilish muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR:

1. O‘zR MDA, 1-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 976-ish, 25-28-varaqlar.
2. Amiriy. “Devon” – O‘zR FAShi, № 3642, 51 a v.
3. Ishoqxon Ibrat "Tarixi Farg‘ona", O‘zR FAShi, № 11616, 76 v.
4. Mirzo Olim Toshkandiy, "Ansob ul-salotin va tavarix al-xavoqin", O‘z FAShi, № 5255, 225 v.
5. “Tarixi Turkiston”, Mullo Olim Hojiy, 1915, 220 b.
6. O‘zR MDA 715-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 60-ish, 195-196-varaqlar.
7. “O‘zbekiston madaniy merosi. Din tarixi davlat muzeyi to‘plami.(SANKT-PETERBURG, ROSSIYa). “SILK ROAD MEDIA”. “EAST STAR MEDIA”.TOSHKENT.2020.
8. Isakova M.S. Istoriya Sentralnogo gosudarstvennogo arxiva kinofotofonodokumentov i ego deyatelnost po sozdaniyu fondov istorii kulturi Uzbekistana: Avtoref. dis kand. ist. nauk. – Tashkent: UzMU, 2004. – C. 30.

## Monosemy in phraseological units in the Uzbek and English languages

Nurmatova Dilshoda 2nd year master's  
Degree in Linguistics of Oriental university Scientific adviser:  
Ph.D M.Kh.Boboeva

**Abstract:** In the study of monosemy in phraseological units, it has been determined that there are not enough sources about monosemy and polysemy in phraseologisms. Despite those it is tried to be analyzed the linguistic theories consisting of lexical and contextual meaning of monosemantic and polysemantic phraseological units with the help of examples. Moreover, a comprehensive study of these phenomenon can give a broader atmosphere and good chance for in- depth analysis of various features of different systematic languages.

**Key words:** Phraseological integrity, semantic unity, polysemic word, multiword lexical, fixed expressions, semantic stability, analogy, connotations.

**Savlatova Zinnura Sobirjonovna**

Toshkent Iqtisodiyot va Pedagogika Instituti

### **Annotatsiya:**

Til milliy identitetning mohiyati bo‘lib, xalqning tarixiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishini aks ettiradi. Ushbu tadqiqotda til va milliy o‘zlik o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlik, ayniqsa o‘zbek tiliga alohida e’tibor qaratilgan. Nazariy yondashuvlar, tarixiy rivojlanish va zamonaviy muammolarni tahlil qilish orqali tilning madaniy merosni saqlash va milliy birligini mustahkamlashdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Tadqiqotda globalizatsiya, tilga ta’sir va o‘zbek tilini davlat tili sifatida rivojlantirishga qaratilgan siyosatdagi islohotlar kabi masalalar ko‘rib chiqilgan. Tilning kollektiv ongingizni shakllantirishdagi ahamiyati ta’kidlanib, zamonaviy o‘zgarishlar sharoitida til an’analarini saqlash zarurligi yuzaga qo‘yilgan. "Til – millat ko‘zgusi" iborasi o‘zbek tilining madaniy ko‘zgusi va jamiyatni rivojlantirishdagi dinamik vosita sifatidagi ikki tomonlama rolini mukammal ifodalaydi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbek tili, milliy identitet, tilni saqlash, madaniy meros, globalizatsiya, til siyosati, sotsiolingvistika.

### **Kirish**

Til – har bir millatning ma’naviy qiyofasi va muloqot vositasi sifatida xalqning madaniy va tarixiy merosini aks ettiruvchi eng muhim omil sanaladi. O‘zbek tili, turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, o‘zining boy merosi va tarixiy ildizlari bilan ajralib turadi. 1989-yilda davlat tili maqomining berilishi o‘zbek tilining nafaqat aloqa vositasi, balki milliy g‘urur va mustaqillik ramziga aylanganining yorqin dalilidir. Bu til, o‘zining madaniy qadriyatlarni saqlab qolish va zamonaviy taraqqiyot talablariga moslashuvchanlik qobiliyati bilan ajralib turadi. Garchi ba’zi sohalarda chet tillarining ta’siri sezilsa-da, o‘zbek tilini rivojlantirish va himoya qilish bo‘yicha qabul qilingan qonunlar, ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar uning xalqaro miqyosdagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarning ijodiy merosi esa bu tilning falsafiy va badiiy kuchini yuksak darajada namoyon etadi. O‘zbek tili milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda, shuningdek, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar sohasida faol

ishtirok etib, xalqimizning madaniy o'zligini dunyoga namoyish etishda alohida o'rin tutadi.

### **Adabiyotlar sharhi**

Til – bu har bir millatning o'zlikni anglash vositasi, uning tarixiy, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim omil hisoblanadi. O'rganilgan ilmiy manbalarda tilning nafaqat muloqot vositasi, balki madaniyat, an'ana va qadriyatlarning o'zida mujassamlashtiruvchi kuch ekanligi ta'kidlangan.

Til va o'zlik munosabatlari sotsiolingvistika sohasida doimiy muhim mavzu bo'lib kelgan. Boltayevna (2024) tilni “millatning ma'naviy boyligi” deb atab, uni xalqning dunyoqarashi va milliy ongini shakllantiruvchi vosita sifatida ta'riflaydi. UNESCO tashkiloti esa tilni avlodlar o'rtasidagi bog'lanish vositasi va madaniy merosni saqlash asosi sifatida tavsiflaydi.

Abrorjon (2022) “Til – millat ko'zgusi” iborasining bejiz aytilmaganligini qayd etadi. Uning so'zlariga ko'ra, til har bir xalqning tarixdagi kurashlari va yutuqlarini aks ettirib, millat o'zligini saqlashda muhim o'rin tutadi. O'zbek tilining 1989-yilda davlat tili maqomiga ega bo'lishi ushbu haqiqatning yorqin dalilidir.

O'zbek tilining rivojlanishi Markaziy Osiyo tarixiy va madaniy yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liq. Tarixiy manbalarda o'zbek tili turkiy tillar oilasining boy an'analari o'zida mujassam etgani qayd etilgan. Ahmedova (2023) o'zbek tilining o'ziga xosligini saqlab qolgan holda turli madaniyatlarning ta'siriga qanday moslashganini o'rgangan.

Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlari o'zbek tilining boyligi va badiiy imkoniyatlarini yorqin ko'rsatib, uning falsafiy va ijodiy kuchini namoyon etadi.

Zamonaviy davr o'zbek tiliga bir qancha imkoniyatlar va muammolarni olib keldi. Globallashtirish jarayoni va chet tillarining ta'siri o'zbek tilining sof va amaliy qo'llanilishiga xavf tug'dirmoqda. Ahmedova (2023) ushbu tahdidlarni qayd etib, o'zbek tilini saqlab qolish uchun ta'lim tizimi va raqamli texnologiyalarda kengroq integratsiya zarurligini ta'kidlaydi.

Kupaysinovna (2021) o'zbek tilini rivojlantirish uchun davlat tomonidan yanada kuchli qo'llab-quvvatlash lozimligini aytadi. U ta'lim va ilm-fan sohalarida o'zbek tilining o'rnini kuchaytirish takliflarini ilgari suradi.

1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi O'zbekiston til siyosatida burilish nuqtasi bo'ldi. Ushbu islohot sobiq sovet davridan keyingi davrda milliy madaniyatni tiklash va mustahkamlash maqsadida qabul qilingan. 2020-yilda o'zbek tilining rivojlanishi va targ'ibotiga oid yangi farmonlar bu boradagi sa'y-harakatlarning davomiyligini ko'rsatadi.

Bu siyosatlar o‘zbek tilini ta’lim, boshqaruv va ommaviy axborot vositalarida faol qo‘llashga yo‘naltirilib, milliy g‘urur tuyg‘usini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

### **So‘rovnoma asosidagi tadqiqotlar**

So‘rovnomalarga asoslangan tadqiqotlar tildan foydalanish va uning milliy o‘zlikdagi o‘rnini yoritishga imkon beradi. O‘zbekistonda o‘tkazilgan tadqiqotlar ko‘rsatadiki, respondentlarning aksariyati o‘zbek tilini madaniy va milliy o‘zlikning asosi sifatida ko‘radi. Biroq, urbanizatsiya va iqtisodiy imkoniyatlar tufayli yoshlar o‘rtasida rus va ingliz tillariga qiziqish ortib borayotgani ham kuzatilmoqda.

"Til – millat ko‘zgusi" iborasi tilning milliy o‘zlikni aks ettirishdagi beqiyos o‘rnini yoritadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning o‘zini anglash va o‘zligini saqlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tili ham tarixiy arxiv, ham zamonaviy innovatsiyalarga moslashuvchan madaniy ko‘zgudir.

### **Xulosa**

Ushbu adabiyotlar sharhida til va milliy o‘zlik o‘rtasidagi murakkab aloqalar yoritilib, o‘zbek tilining boy madaniy va tarixiy ahamiyati ta’kidlandi. Tadqiqotlar o‘zbek tilini zamonaviy xavf-xatarlarga qaramay rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda. "Til – millat ko‘zgusi" iborasi ushbu muhim masalani chuqurroq anglashga yordam beradi va tilni milliy o‘zlikning ajralmas qismi sifatida taqdim etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Boltayevna, Q.M. (2024). *TIL–MILLATNING MA’NAVIY BOYLIGI*. Oriens. Retrieved from [https://oriens.uz/media/journalarticles/76\\_Qurbonova\\_Marguba\\_Boltayevna\\_519-522.pdf](https://oriens.uz/media/journalarticles/76_Qurbonova_Marguba_Boltayevna_519-522.pdf)
2. Ahmedova, M.S.Q. (2023). *Chet tillar ta’sirida o'zgarib borayotgan jon dilim, ona tilim*. Science and Education. Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tillar-ta-sirida-o-zgarib-borayotgan-jon-dilim-ona-tilim>
3. Kupaysinovna, B.M. (2021). *HAR BIR MILLATNING O‘ZLIGINI ANGLATADIGAN OYNASI BU UNING ONA TILI VA ADABIYOTIDIR*. Scientific Progress. Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/har-bir-millatning-o-zligini-anglatadigan-oynasi-bu-uning-ona-tili-va-adabiyotidir.pdf>
4. **Sirojova, Z.N.** (2024). *Milliy ruh, milliy-madaniy xususiyatlarning lingvistik talqini*. *European Journal of Humanities*. Retrieved from <https://worldejurnal.ru/index.php/erai/article/view/492>

5. **Jonibekovna, A.F.** (2024). *Some Comments on the Place and Role of the Uzbek Language in the World Community. Scientific Approach to the Modern World*. Retrieved from <https://interoncof.com/index.php/france/article/view/3372>
6. **Saydullayeva, M., Alangova, A.** (2020). *Developing Intercultural Tolerance of Students. Scientific Journal of the Republic of Uzbekistan*. Retrieved from [https://journals.uz/wp-content/uploads/2020/03/mart\\_conf/Mart\\_conf\\_2020\\_part\\_2.pdf#page=81](https://journals.uz/wp-content/uploads/2020/03/mart_conf/Mart_conf_2020_part_2.pdf#page=81)
7. **Akramov, S.** (2023). *Abdulla Oripov's Aesthetic Views and Historical Factors. Science and Innovation in the Education System*. Retrieved from <http://www.econferences.ru/index.php/sies/article/view/7205>
8. **Suyunov, S.B.** (2024). *The Role of the Uzbek Language in Understanding National Identity in the Process of National Development. Science and Innovation*. Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-taraqqiyot-jarayonida-o-zbek-tilining-milliy-o-zlikni-anglashga-ta-siri>

## **Turli tola tarkibli olovbardosh matolarning sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash**

**Ass. Y.I.Sirojiddinova**  
**t.f.d.prof.S.A.Xamraeva**  
**k.f.d.prof. A.S.Rafiqov**  
**(PhD) M.SH.Hakimova**  
**Toshkent to'qimachilik va**  
**yengil sanoat instituti**

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada matoning fizik-mexanik, olovbardoshlik xususiyatlarini oshganlaigi, fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilanganligi, import o'rnini bosuvchi raqobatbardosh, tabiiy toza va eksportbop mahsulot ekanligi haqida keltirilgan.

**Kalit so'zlar;** turli tola tarkibli ip, turli tarkibli emulsiya, turli tola tarkibli matolar va matolarning sifat ko'rsatkichlari

**Аннотация;** В этой статье перечислены физические и механические свойства ткани, а также ее огнестойкость, которые улучшили физические и механические свойства, и заменитель импорт является конкурентоспособным, экологически чистым и экспортируемым продуктом

**Ключевые слова;** пряжа с различным содержанием волокон, эмульсия с различным составом, ткани с различным содержанием волокон и качественные показатели тканей

**Abstract** This article lists the physical and mechanical properties of the fabric, as well as its fire resistance, which have improved the physical and mechanical properties, and the import substitute is a competitive, environmentally friendly and exported product.

**Keywords:** yarn with different fiber content, emulsion with different composition, fabrics with different fiber content, and quality indicators of fabrics

Matolarning sifatini baholash, uning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va o'lchash ishlari bo'yicha olingan natijalarni hamda standart va meyoriy-hujjatlarga solishtirilgandagi bahosiga asoslangan bo'ladi. Chunki, mahsulot xossalarini aniqlash uslublari asosan standartlar va boshqa meyoriy hujjatlarda batafsil keltirilgan bo'ladi.

To'qimachilik matolarning sifatini baholashning bir qancha uslublari mavjud bo'lib, ularga tajribali, organoleptik, ekspert, sosiologik, hisoblangan, differensial, kompleks va aralash kabilar kiradi.

Sifatni kompleks baholash uslubi-sifatning alohida ko'rsatkichlari bo'yicha matoni birgalikda baholash ishlari ba'zida matoning bitta ko'rsatkichida bir qancha kompleks asosiy xossalarni umumiy baholash kerakligini keltirib chiqaradi. Natijada, bu to'qimachilik matolarining sifatini umumiy baholash deyiladi, masalan, turli uslublarda olingan olovbardosh matolarning uzish kuchi, uzishdagi uzayishi, havo o'tkazuvchanligi, ishqalanishga chidamliligi, yong'inga chidamliligi va boshqa sifat ko'rsatkichlar.

Mahsulot sifat ko'rsatkichlari kompleks baholashning mohiyatiga bog'liqligi haqiqiy va taqribiy kompleks baholashga bo'linadi [71; 55-60-b.].

Tajribada ko'zlangan matoni kompleks baholash belgilangan fizik maqsadga ega bo'lib, ular ko'pincha tolaning tarkibi va yigiriluvchanlik qobiliyati, undan olingan mahsulotning yong'inga chidamliligi, xizmat muddati va boshqa xususiyatlari ifodalaydi.

Kompleks baholash har doimiy taqribiy baholashga nisbatan yaxshiroqdir. Masalan, turli uslubda olingan matolarning yong'inga chidamliligining boshqa xususiyatlardan bog'liq holda baholash haqiqiy kompleksli xususiyati deyiladi.

Kompleks baholashning afzalligi shundaki, unda bir sonli yakuniy baholash bo'yicha xulosa qilinadi. Bu baholash afzalliklar bilan bir qatorda, kamchiliklardan ham xoli emas, ya'ni alohida xossalari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaymiz. Xom ashyoni to'g'ri tanlash uchun, texnologik jarayonni boshqarish va ishlatilish davrida matodan rasional foydalanishni bilish lozim [68;6-10b.]. Shuni e'tiborga olish lozimki, u yoki bu matoning boshlang'ich xossalari ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga ijobiy va texnologik jarayon harakatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Matoning havo o'tkazuvchanligi qanchalik past bo'lsa, matoning yong'inga chidamliligi shunchalik yuqori va matoning o't o'chiruvchi hodimlar uchun qulaylik yaratadi va sog'lig'iga salbiy ta'sir etmaydi. Shuni unutmaslik kerakki, u yoki bu sifatni kompleks baholashni alohida sifat ko'rsatkichlarini turli hisoblashdan olish mumkin. Bir qancha sifat ko'rsatkichlarning darajasi bo'yicha o'rtacha kompleks baholash o'zgarasligi mumkin, ularning bir qismi pastki darajaga, bir qismi yuqori darajaga ega bo'lishi mumkin. Shunday qilib, matoning alohida sifat ko'rsatkichlarini o'zgartirmasdan kompleks baholashni to'ldirib borish mumkin.

To'qimachilik matolari sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholashning turli uslublari mavjud. Masalan, **n** ko'rsatkich bo'yicha **m** ta material uchun differensial

o'lcamsiz bahosi berilgan, hamda turli ahamiyatli koeffitsentga ega bo'lsa, ahamiyatlilik koeffitsentli bilan baholanadi.

Ilmiy tadqiqot ishimizda olingan gigiyenik, fizik-mexanik xossalari ko'rsatkichlari bo'yicha eng maqbul variantlarni tavsiya etish maqsadida kompleks baholashning grafik uslubi qo'llandi. Bu uslubning afzalligi bir vaqtda materiallarga qo'yilgan talablar bo'yicha xossalarning umumlashtirilgan sifat ko'rsatkichlarini eng maqbul variantlarini aniqlab obektiv baholash mumkin.

Baholash uchun xossalar bo'yicha markazdan (m) ko'rsatkichlar o'qlarda yoki kamayuvchan qiymatlar tegishli masshtablarda belgilanib radius-vektorlari yordamida ko'p burchaklar chiziladi. O'qlarni taqsimlanishida matoning maqsadli vazifasi, fizik-mexanik xususiyatlari, puxtalik ko'rsatkichlarining belgilangan meyorlarga mosligi e'tiborga olinishi lozim. Masalan, radius vektorlar sirt zichligi, havo o'tkazuvchanligi, uzish kuchi, uzishdagi uzayish, ishqalanishga chidamliligi, yong'inga chidamliligi ko'rsatkichlari markaz tomonga belgilanadi [71; 55-60-b.]. Hosil bo'lgan ko'pburchaklar uchburchaklarga taqsimlanadi va ularning yuzasi hamda xossa ko'rsatkichlari asosida variantlar uchburchaklar yuzasi yig'indilari hisoblanadi.

$$S_{\Delta} = \frac{1}{2} ab \sin \alpha \quad (1)$$

bu yerda a, b-uchburchak radius-vektorlari o'lchamlari, mm;  $\alpha$ -radius vektorlar orasidagi burchak.

Turli uslublarda olingan olovbardosh matolarning yuvishgacha va yuvgandan so'ng sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash 3.12-3.13-jadvaldagi natijalar asosida amalga oshirildi( 3.10-3.11-rasmlar).

1-jadval

Turli tola tarkibli olovbardosh matolarning yuvishdan avval sifat ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Nazorat namuna matosi	Birinchi variantdagi mato	Ikkinchi variantdagi mato	Uchinchi variantdagi mato	O'zDst 3191:2019
1	Uzish kuchi, N, tanda arqoq	730 530	680 532	750 548	824 551	700- 900 400- 700
2	Matoning uzishdagi uzayishi, %	12,8 9,1	12,4 8,8	13 9,2	13,9 9,8	


	tanda arqoq					
3	Matoning havo o'tkazuvchanligi, $\text{dm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{s}$	100	90	90	80	20
4	Matoning suv o'tkazuvchanligi, $\text{Pa} \cdot \text{mm}^2/\text{suv}$ ustuni	100	90	90	100	90
4	Matoning ishqalanishga chidamliligi, davr	5502	4484	5898	7244	3500 4500
5	Matoning yong'inga chidamliligini aniqlash uchun ta'sir etilgan harorat, °C	500	520	680	750	
6	Olov ta'sirida matoning kuygan maydoning uzunligi, mm	47	35	20	18	
	Issiqlik o'tkazuvchanligi, %	0,06	0,06	0,06	0,06	0,06

2-jadval


Turli tola tarkibli olovbardosh matolarning yuvgandan so'ng sifat ko'rsatkichlari

	Nazorat mato namunasi	Birinchi variantdagi mato	Ikkinchi variantdagi mato	Uchinchi variantdagi mato	O'zDst 3191:2019
Uzish kuchi, N, tanda arqoq	658 501	641 498	710 501	801 539	700-900 400-700
Matoning uzishdagi uzayishi, %, tanda	11,2 8,3	11,5 8,0	12,1 8,5	12,8 9,0	

	arqoq					
	Matoning havo o'tkazuvchanligi, $\text{dm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{s}$	200	80		60	20
	Matoning suv o'tkazuvchanligi, $\text{Pa mm}^2/\text{suv ustuni}$	60	60	70	80	90
	Ishqalanishga chidamlilik, davr	4788	4006	5027	6998	3500 4500
	Yuvgandan so'ng kirishishi, % tanda, arqoq	3,4 3,2	4	-1,2 1,8	8	-2.0 $\pm 1,5$
	Yong'inga chidamliligini aniqlash uchun ta'sir etilgan harorat, $^{\circ}\text{C}$	400	550	650	700	
	Olov ta'sirida matoning kuygan maydoni uzunligi, mm	100	80	70	50	
	Issiqlik o'tkazuvchanligi, W/m	1,6	1,0	0,08	0,06	0,06



1-rasm. Turli tola tarkibli olovbardosh matolarning yuvishdan avval sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash diagrammasi



- nazorat mato namunasi


**I**-Birinchi variant emul siyali birinchi-variantdagi mato

**II**-Ikkinchi variant emulsiyali ikkinchi-variantdagi mato


**III**-Uchinchi variant emulsiyali uchinchi-variantdagi mato

2-rasm. Turli tola tarkibli olovbardosh matolarning yuvgandan avval sifat ko'rsatkichlarini qiyosiy gistogrammasi.

Turli tola tarkibli matolarning yuvishdan avval ko'rsatkichlarini kompleks baholandi va quyidagi ko'pburchak maydonlari aniqlandi: - nazorat namuna matoning xossalarini baholash bo'yicha egallagan ko'pburchaklar maydoni 1807mm<sup>2</sup> ni, I-variantdagi olovbardosh matoning ko'pburchaklar maydoni 1635mm<sup>2</sup> ni, II - variantdagi olovbardosh matoning ko'pburchaklar maydoni 5177mm<sup>2</sup> ni, III -variantdagi olovbardosh matoning ko'pburchaklar maydoni 11549mm<sup>2</sup> ni tashkil etdi. Bunda III - variantdagi uchinchi variant emulsiyali 25% paxta va 75% xrizotil tolali olovbardosh matoning xossalarini baholash bo'yicha egallagan ko'pburchaklar maydoni eng yuqori ko'rsatkichni egalladi.



3-rasm. Turli tola tarkibli olovbardosh yuvilgandan so'ng matolarning sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash diagrammasi



- nazorat mato namunasi

**I**-Birinchi variant emul siyali birinchi-variantdagi mato

**II**-Ikkinchi variant emulsiyali ikkinchi-variantdagi mato

**III**-Uchinchi variant emulsiyali uchinchi-variantdagi mato

4-rasm. Turli tola tarkibli olovbardosh matolarning yuvilgandan so'ng sifat ko'rsatkichlarini qiyosiy gistogrammasi.

**Хулоса.** Turli tola tarkibli matolarning yuvishdan so'nggi ko'rsatkichlarini kompleks baholash natijasida:-nazorat namuna matoning xossalarini baholash bo'yicha egallagan ko'pburchaklar maydoni 971mm<sup>2</sup> ni, I-variantdagi olovbardosh matoning ko'pburchaklar maydoni 1244mm<sup>2</sup> ni, II-variantdagi olovbardosh matoning ko'pburchaklar maydoni 4186mm<sup>2</sup> ni, III-variantdagi olovbardosh matoning ko'pburchaklar maydoni 9875mm<sup>2</sup> ni tashkil etdi. Yuvishdan so'ng ham III - variantdagi uchinchi tarkibdagi emulsiyali 25% paxta va 75% xrizotil tolali

olovbardosh matoning xossalarini baholash bo'yicha egallagan ko'pburchaklar maydoni eng yuqori ko'rsatkichni egallagani kuzatildi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Sirojiddinova Y.I, Xamrayeva S.A, Toshqulova K.F, "Application of natural chrysotile fiber in production of refractory fabric in textile industry" // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, ISSN: 2350-0328 Vol. 9, Issue 2, February 2022 Hindiston. 2022. B 19031-19034.

2. Xamrayeva S.A, Sirojiddinova Y.I "Evaluation of the fire resistance properties of yarn and fabric with a structure made of asbestos" At-2" and cotton fiber" Sciences & Advancements. Singapore 2021. V127-130.

## Shoir dunyoqarashi va ijod konsepsiyasining g'azaldagi ifodasi

**Bo'tayeva Nigora Abdumannonovna**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi**

**+998901823132**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Komil Xorazmiy g'azaliyotida shoir dunyoqarashining aks etishi, ijod konsepsiyasi, so'zdan foydalanish mahorati, g'azallarda qo'llangan badiiy san'atlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Qur'oni Karim, shariat, raiyat, dunyoqarash, ijod konsepsiyasi, Ideal jamiyat, komil inson orzusi, mubolag'a, tashbih, tanosub san'atlari

**Аннотация:** В статье рассматривается отражение в газелях Камиля Хорезма мировоззрения поэта, творческого замысла, мастерства владения словом, художественных приемов, используемых в газелях.

**Ключевые слова:** Священный Коран, Шариат, Райят, мировоззрение, концепция творчества, идеальное общество, мечта о совершенном человеке, преувеличение, ташбих, искусство таносуба

**Abstract:** This article discusses the reflection of the poet's worldview, creative concept, mastery of the word, and artistic techniques used in ghazals in the ghazals of Kamil Khorezmi.

**Key words:** The Holy Quran, Sharia, raiyat, worldview, concept of creativity, ideal society, dream of a perfect person, exaggeration, tashbih, the arts of tanosub

Komil Xorazmiy-ijodi orqali kishilarni yaratilarni sevisga, ulardan unumli foydalanishga va har bir ne'matning savol-so'rog'i bor ekanligini unutmaslikka chaqiradi. Komillik shunchaki erishib bo'lmaydigan martaba ekanligini uqtiradi. Kishilarni nafs bilan, dunyo bilan ovvora bo'lib qolmaslikka undaydi. Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Shoir dunyo va uning matohlarini mutlaqo rad etmaydi, butkul voz kechib ketmaydi. Balki, har bandani haddidan oshmaslikka, insoniylik chegarasidan chiqmaslikka undaydi va bu shoir dunyoqarashining asosiy jihatlaridan biridir. An'anaga ergashgan holda Hazrat Navoiyning etagidan tutadi. Dunyo falsafasi borasida ham ayni Mir Alisher Navoiyning izidan boradi. Ya'ni, Alloh yaratgan yaratilqlar bandalarining foydalanishlari uchun ekanligi, ulardan unimli va rizq qilib berilganicha foydalanish kerak deb hisoblaydi. Zero, "muqaddas dinimiz Islomda isrof qattiq qoralangan. Alloh taolo O'z Kalomi majidida: "Yenglar, ichinglar, ammo isrof qilmanglar. Zero, U isrof qilguvchilarni sevmas", deb aytgan (A'rof, 31).

Bundan kelib chiqadiki, Alloh bergan ne'matlarni isrof qilish, ularni qadriga yetmaslik gunohdir"<sup>1</sup>.

Shoir dunyoqarashi va ijod konsepsiyasining g'azallarida aks etishini quyidagi guruhlarga bo'lgan holda tahlil qilish mumkin:

1. Shoir ijodida hukmdorga qo'yiladigan talablar;
2. Ijod ahli amal qilishi lozim bo'lgan mezonlar;
3. Ideal jamiyat va komil inson orzusi.

Umri davomida bir fursat siyosiy faoliyat olib borgan shoir ko'rgan-kechirganlaridan xulosa qilib, shohmi, gadomi har bandani inson bo'lishlikka chaqiradi. Zero, 1873 yilda Xivaga bostirib kirgan rus armiyasi va ular bilan kelishuvga erishish Komil Xorazmiyning bemisl xizmatlari samarasi edi. Keyinchalik Bayoniy va Laffasiy o'z asarlarida shoirning shu yillardagi faoliyatini baholaganda birmuncha salbiy fikrlar bilan yodga olsalar-da, o'sha vaqtda Komil tutgan yo'l eng to'g'ri yo'l edi. Bu kelishuv bilan shoir ikki narsaga erishadi: birinchidan, Xiva xonligidan avval bosib olingan Turkiston yerlari to'pga tutilib, vayron qilingan, mirzaboshi Komilning bu qarori esa Xivaning to'pga tutilishi, qadimiy binolarning saqlab qolinishiga yordam bergan bo'lsa, ikkinchidan, xalqni azob-uqubatda qoldirmaslik uchun qilingan harakat edi. Shu bilan birga Xiva xonligi vassal sifatida bo'lsa-da saqlab qolishga erishildi. Komil Muhammad Rahimxoni Soniy (Feruz)dek tiniq fikrli, ma'rifat homiysining qo'lida faoliyat olib bordi. Bu davr boshqa xonliklar bilan qiyoslanganda Xiva xonligining gullab - yashnagan vaqti bo'ldi. Xorazm diyorida yangicha maktablar, shifoxonalar, suratxona, bosmaxonalar paydo bo'ldi va bunday ma'naviyat o'choqlari xalqqa ma'rifat ulashish uchun xizmat qildi. Bu kabi jarayonlarda Komilning hissasi katta edi. Avvalo, xalq uchun harakat qiladigan Komil xonlikning obro'si, davlatning qudrati xon bilan ekanligini yaxshi anglar va ma'rifatli, odil xonni doimo qo'llab-quvvatlar edi. Adolatli va ma'rifatparvar shoh xususida so'z yuritganda esa, yana Alisher Navoiyning qarashlariga tayanadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Hazrat Navoiy o'z asarlarida tasvirlagan adolatli shoh, ma'rifatli davlatpanoh timsolida Xurosonning qudrati, turkiy millatning sha'nini nazarda tutgan bo'lsa, Komil Xorazmiy ham shu yo'ldan bordi. Har ikki ijodkor ham saroyda faoliyat olib borgan, shohning yaqin kishilaridan bo'lgan. Davlatning og'ir kunlari, xalqning azoblarini birga totgan, xiyonatlar, tuhmat toshlari ostida ruhan ezilgan. Bunday vaziyatlar har qanday aql egasiga saboq berish bilan birga unga do'st-dushmani ham tanitadi. Adolatli shoh qanday bo'lishi kerak?-degan savolga javob qidira

<sup>1</sup> Islom.uz. Исроф моҳияти. 24.03.2017

boshlaydi. Masalan, Alisher Navoiy nafaqat “do‘sti Husayn Boyqaroga nasihat qilish, uni ogohlantirib turish, ulug‘ va ezgu ishlarga yo‘llash bilan cheklandi, balki Boyqaro farzandlari – shahzodalarga davlatchilik asoslarini, Amir Temur o‘g‘itlari va an‘analarini o‘rgatish, tanbeh va nasihatlar orqali ta‘sir etib turishni o‘z burchi deb bildi. ...Badiuzzamonga yuborilgan boshqa bir maktubda endigina Iroq va Kurdiston hokimligiga tayinlangan shahzodaga davlat boshqaruvining dasturi bo‘ladigan o‘ttiz ikki banddan iborat fikrlarini bayon etadi. Maktub, garchi, nasihat usulida yozilgan bo‘lsa-da, uning zamirida talab va ogohlantirish ohangi yotadi. Agar bu fikrlarni umumlashtirsak, Navoiy quyidagi uch jihatga e‘tibor qaratganini ko‘ramiz:

– shohning o‘zi shariat talablariga amal qilishi va boshqalardan ham shuni qat‘iy talab etishi lozim;

– raiyatning ahvolidan doimo xabardor bo‘lib turish, adolat istab kelganlarning arzini muntazam ravishda eshitib, zolimlarni jazolash, shoh va fuqaro orasida o‘zaro ishonch va muhabbatni qaror toptirish;

– devonda ish yuritishni qat‘iy intizom asosida yo‘lga qo‘yish, ta‘magirlik, poraxo‘rlik, sustkashlikka yo‘l qo‘ymaslik.

Navoiy yana shuni ta‘kidlaydiki, mamlakatning halol, vijdonli kishilarini, obro‘-e‘tiborga ega ulamolar, arboblarni qadrlash va ularga suyanish lozim. Navoiy ta‘rificha, shoh hamma vaqt ogoh bo‘lishi kerak:

Erursan shoh – agar ogohsen sen,

Agar ogohsen – shohsen sen.

Ogohlik deganda juda keng ma‘no nazarda tutiladi: Xudodan ogohlik, oxiratni o‘ylab, savob ishlarga qo‘l urish, nafsni tiyish, raiyat va lashkar ahvolidan xabardorlik va hokazo. Umuman, Navoiy tushunchasi bo‘yicha, podsho – Xudoning tanlagan odami, bu har kimga ham nasib bo‘lmaydi. Odil podsho esa bandalarga yuborilgan ne‘matdir. Shuning uchun ham podsho Xudo oldida va xalq oldida mas‘ul. Adolat g‘oyasi Alisher Navoiyning qariyb hamma asarlarida turli yo‘sinda ifodalangan. Podsho uchun «bir soatlik adolatli bo‘lish oltmish soatlik ibodatdan ustun» degan Payg‘ambar hadisi tez-tez takrorlanib keladi. Ya‘ni, boshlig‘i adolatli bo‘lishi mamlakatga eng katta fazilat, eng ulug‘ savob. «Podsho qanday bo‘lsa, uning a‘yonlari ham shundaydir» degan hadisning ma‘nosi shunga ishora<sup>2</sup>. Yoki, shoir “Saddi Iskandariy” dostonining 9 bobida Shoh G‘oziy-Husayn Boyqaroni quyidagicha ulug‘laydi:

Vale anbiyo ichra andoqki, shoh

<sup>2</sup> Комилов Н., Ганиева С. Навоий ижодида миллий давлатчилик ва ҳуқук. (давра суҳбати), <https://kh-davron.uz/kutubxona/09.02.2018>

Muhammad kelib, o'zga xayl-u sipoh.  
Aning ummatidin salotinda ham,  
Birov keldi shoh, o'zga bori xidam.  
Bori shohlarning sarafrozi ul,  
Shahi shar'oyin Abulg'ozi ul<sup>3</sup>.

Alisher Navoiy mubolag'a san'ati vositasida Muhammad (s.a.v) payg'ambarlar orasida qanday mavqeda bo'lsa, Husayn Boyqaro ham sultonlar orasida shunday mavqega egadir<sup>4</sup>, deb yozadi. Zero, Navoiy adolatli shoh timsolida mamlakat va millatning naqadar buyukligiga ham ishora qiladi.

Komil Xorazmiy ham bir muhammasida Feruz shoh bilan zamondosh bo'lganidan iftihar tuyadi:

Zamona ahlining boshig'a zillullohiman lekin,  
Agarchi baxti Feruz ila olam shohiman lekin,

Ushbu baytda shoir zamona ahlining zillullohi-Allahning yerdagi soyasi, Feruz shoh bilan o'zini olamning baxtli shohi deb atasa, yana bir "iyd" radifli g'azalida:

Shohim nechukki toqdurur shohlar aro,  
Bu iyd keldi iydlar ichra yagona iyd.

*Tashbih, tanosub* san'atlaridan unumli foydalanib, baytni badiiy jihatdan go'zal ijod etgan shoir, umri davomida ko'rgan hayit bayramlari bir-u bu hayit bayrami bir taraf bo'lgani kabi shohlar ichra zamona shohi ham yagona ekanligini aytadi.

Shohimning ilohi umri jovid o'lsun,  
Har bir kuni oning, o'ylakim, iyd o'lsun.  
Razm ichra sipahdorini Mirrix etgil,  
Bazm ichra taronaxoni Nohid o'lsun.

Ushbu ikki baytda ham shoir shohga omonlik, nomiga umrboqiylik, har kunini hayit bo'lishini, uning sipohdori jangu-jadal homiysi-Bahrom-Mirrih yulduzi bo'lsa, bazmining taronaxoni Nohid-musiqa homiysi Zuhra yulduzi bo'lishini tilaydi. Yuqoridagi ikki she'riy parchada ham shohning nomi hayit bayramiga bog'lab tariflanadi. Buning sababi esa, bayramning asl mohiyatidir. Hayit ayyomi musulmonlarning muqaddas bayramlaridan biri bo'lib, bu kunda nafaqat dasturxonlar balki, ko'ngillar xotirjamlik, mehr-muhabbat, kechirimlilik kabi tuyg'ular bilan to'ldiriladi. Shoir shohga har kuning "iyd bo'lsin", deb uning har kuni xotirjam, adolatli, kechirimli, bag'rikeng bo'lishini tilaydi. Shoh kechirimli va

<sup>3</sup> Навоий А. Хамса. Сади Искандарий. "Tamaddun", Т.: 2021. Б.81

<sup>4</sup> Сирожиддинов С., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. "Tamaddun", Т.: 2018. Б.155

adolatli ekan, xalq ham osoyishta hayot kechiradi, demoqchi bo'ladi. Baytlar nafaqat ma'no balki, badiiyati jihatidan ham *mubolag'a*, (*Ikkinchi bayt*)*tanosub* (*iyd, bazm*), *talmih* (*Mirrix, Nohid*) kabi san'at turlari bilan ziynatlangan.

Shoir o'zining yana bir muhammasida zamona sultoniga ta'rif berar ekan shohni marhamatidan umidvor bo'ladi:

Ey, adlu karamli podshohim,  
V-ey, saltanat avji uzra mohim,  
Bilmon nedurur maning gunohim,  
Yetmas sanga hech fig'onu ohim,  
Shoho, karamingdin ayla xushnud,  
Maqbul qulingni qilma mardud.

Ushbu misralar shoir umrining qiyinchilikda kechgan pallasi haqida so'zlaydi. Uning xonga ma'qul kelmay qolib, hatto rusiya muhtoriyati ham undan voz kechgan damlarda chekilgan iztirob bu. Shoir xon bilan bir necha marotaba uchrashmoqchi, vaziyatni o'nglamoqchi bo'ladi, ammo uddasidan chiqa olmaydi. Xonning adolatidan umid qiladi. Uni karami keng deb biladi. Xonni yuqoridagi sifatlar bilan olqishlar ekan, go'yo podshoh aslida shunday bo'lishi kerak, demoqchi bo'ladi. Zero, "Alloh taolo yetti toifa kishiga soya yo'q kunda O'z soyasi (qiyomat haroratida Arshning soyasi)dan panoh berur: 1) odil podshoh;...<sup>5</sup>"dir.

Misralarning asl mohiyatidan esa shoir chin podshohga, butun borliqni egasi bo'lmish Allohga murojaat qilgani anglashiladi. O'zining gunohkor qul ekanligini bo'yniga olib, Yaratgandan avf tilaydi.

Shuningdek, Komil Xorazmiy ijodda o'z oldiga qanday maqsad qo'yan bo'lsa, boshqa ijodkorlarni ham she'riyatda qat'iy qoida va talablariga amal qilishini so'raydi. Shuning barobarida asl shoirlar pok kishilar ekanligi, ularning har so'zi shunchaki so'z emas, balki balog'at daryosining duri ekanligini ta'kidlab o'tadi:

Har necha aylabon izhor fasohat shuaro,  
Sochar elga duri daryoi balog'at shuaro.  
Ochibon lutfi malohat gulin ash'oridin  
Rangbo'yi chamani, fazlu fatonat shuaro.

Ushbu baytlar orqali shoirlarning fasohat-so'zining yoqimli, uslubining chiroyliligi bilan elga balog'at daryosining durlarini sochishi madh etiladi. Shoir haq va to'g'ri yozsa, uning har bir bayti, har satri kishilarni yetuklikka chorlaydi. Balog'at daryosidan durlarni terib olish esa ijodkordan katta mehnat talab qilish

<sup>5</sup> 12-КИТОБ «СИН» Ҳарфи Бухорий ва Муслим ривояти. HADIS.ISLOM.UZ, 661-ҳадис.

bilan birga iqtidor va ilm sohibi bo'lishga ham undaydi. Baytlar tashbih san'atining go'zal na'munasi ekanligi bilan ham ahamiyatlidir.

Keyingi baytlarda shoir shuaroning fe'liga quyidagicha ta'rif beradi:

Qilmas umid, qilur shukur, sharorat elining  
Tilu ilkidin agar qolsa salomat shuaro.  
Haq so'zin shohu gado qoshida kitmon etmas,  
Bu jihatdin hadafi tiyri malomat shuaro.

Shoirda molu-davlatning hech qizig'i yo'q, u yomonlarning til jarohatlari-yu qo'li orqali boshiga tushadigan ofatlardan omon qolsa shunga ham shukr qiladi. Chunki, shohu-gado qoshida doimo haq so'zni so'zlaydi. Ammo bu jihati maqtovga sozovor emas, degandik kinoya qiladi va shu fe'li bilan doimo malomat o'qiga nishon bo'ladi, deydi. Navbatdagi baytda esa, shoirlarning ham noiloj qolishlari, doim ham ko'ngil bilan ish tuta olmasliklari quyidagicha ochiqdanadi:

Qilmag'ay johilu nodong'a itoat hargiz,  
Ko'rmasa bir kishidin hukmi siyosat shuaro.  
Chun itooti ulul-amir vujubin biladur,  
Tark qilmas nafase vojibu sunnat shuaro.

Agar, unga johil yoki nodon kishilar bosh bo'lib, amr etsalar bo'ysunishdan boshqa chora topolmaydi. O'zining ustida hukronlik qilganga esa tanlarida nafasleri bor ekan itoatni tark qilmaslar.

Shoirning ushbu misralari bevosita o'z hayotidan so'zlaydi. O'zining kechmishi haqida bayon qiladi. Bir tanada bir vaqtda ham siyosat odami, ham shoir yashayotganini eslatib turadi. Ularni bir-biriga qarshi bo'lib qolishidan cho'chiydi. Ular bilan doimo murosa qilishga harakat qiladi. Chunki, birining fisq-fasod, ikkiyuzlamachilik, bosqinchiliklarni ko'rib diydasi qotgan bo'lsa, ikkinchisi boladek pok va nozikdir. Agar shoir tanasida, ruhiyatida birinchi qiyofa ustunlik qilsa, shoir ko'ngildan ajralib qolishi hech gap emas. Shu sabab u doimo o'zi-bilan o'zi kurashib yashashga, qay tomon mag'lub bo'lsa ham uning achchiq alamini tatib ko'rishga rozi bo'lib yashaydi.

Bor alardin necha bekorlar izzatda ziyod,  
Tilu ilki bila ham aylasa xizmat shuaro.  
Emdi soch so'z duri Komil sadafi tab'ingdin,  
Tobti shoh hazratida qadr ila himmat shuaro.

G'azalning so'nggi baytlarida esa, shunday shoirlar borki, ular ziyoda izzatdadir. Chunki, ular qo'llari qolib tillari bilan ham xizmat qiladilar. Ya'ni tilyog'lamalik, ikkiyuzlamachilik qiladilar, demoqchi bo'ladi. Shu o'rinda "Shuaro" surasining 224-oyatiga nazar tashlasak, "Va shoirlarga gumrohlarga ergashur". Bu

o'rinda hamma shoirlar emas, balki, aytganiga o'zi amal qilmaydigan, yolg'on yozadigan va odamlarni tili bilan aldaydigan toifaga qarata aytilganiga guvoh bo'lamiz. Bayt tarkibida tanosub san'atidan qo'llanilgan na'muna (*Tilu ilki*) shoirning ayni sifatlarini ochib berishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

G'azalning so'nggi bayti shukronalik va minnatdorlik hissiga yo'g'rilgan. Shoir shohning e'tibori sabab, unga ehtirom sifatida bisotidagi sadafidan so'zning sara durlarini sochmoq istaydi va baytda tashbih san'atidan go'zal na'muna keltirgan holda (*Emdi soch so'z duri Komil sadafi tab'ingdin*) shohga minnatdorlik izhor etadi go'yo.

Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri"<sup>6</sup> nomli asarida fozil shahar hokimining o'n ikki fazilatini sanab o'tib, u Allohdan o'zgaga egilmasligi, tana va ruhining sog'lom bo'lishi haqida yozadi. Fozil kishining aql-zakovati o'tkir, haromdan hazar qiladigan, bilim ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish-o'rganishdan charchamaydigan, nomaqbul ishlardan yiroq yurishi haqida aytiladi. Bu fazilatlar Haq yo'lga tushgan har bandaning hislati bo'lmog'i lozim. Shundagina, jamiyatni isloh qiladigan, tafakkur va shukr qilguvchi insonlar ko'payadi. Shundagina, jamiyat fozillarni qadrlashni, asrashni o'rganadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy mashriyoti, T.:2004, 41 bet.
2. Islom.uz. Isrof mohiyati. 24.03.2017
3. Komilov N., G'anieva S. Navoiy ijodida milliy davlatchilik va huquq. (davra suhbat), <https://kh-davron.uz/kutubxona/> 09.02.2018
4. Navoiy A. Xamsa. Saddi Iskandariy. "Tamaddun", T.: 2021. B.81
5. Sirojiddinov S., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. "Tamaddun", T.: 2018. B.155
6. 12-KITOB «SIN» Harfi Buxoriy va Muslim rivoyati. HADIS.ISLOM.UZ, 661-hadis.

---

<sup>6</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy mashriyoti, T.:2004, 41 bet.

**OUTLINE  
VOLUME-02, ISSUE-04**

<b>1.</b>	<b>ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛНЕНИЯ СУДЕБНЫХ РЕШЕНИЙ ПО ДЕЛАМ, СВЯЗАННЫМ С ЗЕМЛЕЙ</b> Ойбек Марупов	<b>5-13</b>
<b>2.</b>	<b>HAYKALTAROSHLIK MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI</b> Djabbarov Dilshod Turdikulovich	<b>14-21</b>
<b>3.</b>	<b>The need to organize psychological services with patients</b> Shakhlokhon Kurbanova	<b>22-25</b>
<b>4.</b>	<b>Janos Eckman asarlariga qisqacha tavsif.</b> Abdisharibova Lutfiya Madaminovna	<b>26-28</b>
<b>5.</b>	<b>ПРЕДСТАВЛЕНИЕ РЕЗУЛЬТАТОВ ЭЛЕКТРОННОЙ ТАБЛИЦЫ В ВИДЕ ДИАГРАММЫ</b> Ахаткулов Анвар Алмасович	<b>29-32</b>
<b>6.</b>	<b>EFFECTIVENESS OF CULTURAL AND EDUCATIONAL ACTIVITIES IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENT YOUTH</b> Arslonbek Kalandarovich Khudayberganov	<b>33-34</b>
<b>7.</b>	<b>THE FORMATION AND TRANSFORMATION OF HEADRESSES AND ORNAMENTS IN THE KHOREZM OASIS</b> Bakhodirova Guli	<b>35-37</b>
<b>8.</b>	<b>FOLK EXPERIENCE OF FARMING AND GARDENING IN THE KHOREZM OASIS</b> Bakhodirova Rukhshana	<b>38-40</b>
<b>9.</b>	<b>Rossiya madaniyati va urf-odatlari.</b> Sobirova Nodira Jumanazar qizi Nazarov Didar Maxsat o'g'li	<b>41-44</b>
<b>10.</b>	<b>ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI VA IJODIDA TIL VA ADABIYOTNING UYG'UNLIGI</b> NORBO'TAYEVA MARJONA	<b>45-48</b>
<b>11.</b>	<b>СУФИЗМ СКВОЗЬ ПРИЗМУ СОВРЕМЕННОСТИ</b> Эмирова Елена Энверовна	<b>49-52</b>

12.	<b>ВЗГЛЯДЫ АБУ НАСРА ФАРАБИ НА СПРАВЕДЛИВОЕ ОБЩЕСТВО</b> С. Юсупова	53-58
13.	<b>JAVLON JOVLIYEVNING HIKOYANAVISLIK MAHORATI</b> Inobat Bazarbayeva	59-61
14.	<b>THE RELEVANCE OF DEVELOPING SOCIAL COMPETENCIES OF FUTURE TEACHERS IN AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT</b> Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	62-66
15.	<b>ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ САМОУПРАВЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ</b> Искандаров Эркинбой Гайратович	67-70
16.	<b>CHRONIC ENDOMETRITIS IN WOMEN WITH PELVIC PAIN: DECODING PATHOGENESIS, ENHANCING DIAGNOSTICS, AND OPTIMIZING MULTIMODAL THERAPY</b> Tursoatova Sh.M Tilyavova S.A	71-72
17.	<b>O'RTA MAXSUS, KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH VA OLIY O'QUV YURTLARIDA INKLYUZIV TA'LIM</b> Xaydarova Nodirabonu Xayrullo qizi Oxunov Ilhomjon	73-75
18.	<b>VII GURUX ASOSIY GURUXCHA ELEMENTLARI. NODIR GAZLARNING OLINISHI VA XOSSALARI</b> Rahmatjonova Zarina Elyorbek qizi	76-78
19.	<b>REQUIREMENTS FOR THE PRACTICE OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS</b> Odamova O'g'iljon Kenjayevna	79-82
20.	<b>ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATI: BADIY TAFAKKUR VA MILLIY G'URUR TIMSOLI</b> Ahmadova Mohinur Anvar qizi	83-87
21.	<b>O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXSHUNOSLIGIDA QO'QON XONLIGI TARIXI VA MA'NAVIY MEROSI MASALALARINING O'RNI</b>	88-92

	<b>G.S.Madraximova</b>	
<b>22.</b>	<b>Monosemy in phraseological units in the Uzbek and English languages Ph.D M.Kh. Boboeva</b>	<b>93-99</b>
<b>23.</b>	<b>METHODOLOGY OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING KARAKALPOK LANGUAGE PHONETICS Timur Jorabekov Kewnimjaevich</b>	<b>100-103</b>
<b>24.</b>	<b>Научное обоснование производства безглютеновых хлебных палочек для специального употребления на основе рисовой и кукурузной муки, а также жирного пектина желчи. Санаев Е.Ш.</b>	<b>104-107</b>
<b>25.</b>	<b>NOGIRONLARNING PSIXOLOGIK ADAPTATSIYASI Eshmatova Sevdo Abdurashitovna</b>	<b>108-110</b>
<b>26.</b>	<b>O'ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIGIDA KORPORATIV SHARTNOMA INSTIUTUTINING VUJUDGA KELISHI VA EVOLYUTSIYASI Nurmuhammadov Tohirjon To'lqinjon o'g'li</b>	<b>111-119</b>
<b>27.</b>	<b>THE HEROISM OF UZBEK WOMEN DURING WORLD WAR II Rozimova Yorkinoy Yuldashevna</b>	<b>120-124</b>
<b>28.</b>	<b>Mechanisms for Ensuring Cadets' Psychological Stability in Military Tactical Exercises Qosimov Muhammadali Hakimovich</b>	<b>125-129</b>
<b>29.</b>	<b>Maqsud Shayxzoda: adib, tarjimon va ma'rifatparvar siymo Qodirov Islomjon Iqboljon o'g'li</b>	<b>130-132</b>
<b>30.</b>	<b>About encouraging children to read books M.B. Saidmuratova</b>	<b>133-136</b>
<b>31.</b>	<b>O'RTA OSIYO SHAHARLARIDA XVI-XIX ASRLARDA HUNARMANDCHILIK RIVOJI Nortojiyev Jamshidbek</b>	<b>137-140</b>
<b>32.</b>	<b>NUMERALS IN LINGUISTIC AND CULTURAL CONTEXTS: STRUCTURE, FUNCTION, AND EVOLUTION Yusupova Maksuda Umidjonovna</b>	<b>141-142</b>
<b>33.</b>	<b>ПОТЕНЦИАЛ АГОНИСТОВ ГПП-1 В ПРОФИЛАКТИКЕ КОГНИТИВНЫХ</b>	<b>143-150</b>

	<b>НАРУШЕНИЙ ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ 2 ТИПА</b> <b>Рахимова Г.Н., Асадова Н.Ш.</b>	
<b>34.</b>	<b>Til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik: Sotsiologvistikaning dolzarb masalalari (O‘zbekiston misolida)"</b> <b>Muxtorjonova Durdona</b>	<b>151-153</b>
<b>35.</b>	<b>Uzbek Language and Its Impact on Cultural and National Identity</b> <b>Savlatova Zinnura Sobirjonovna</b>	<b>154-158</b>
<b>36</b>	<b>Turli tola tarkibli olovbardosh matolarning sifat ko‘rsatkichlarini kompleks baholash</b> <b>Y.I.Sirojiddinova</b> <b>S.A.Xamraeva</b> <b>A.S.Rafiqov</b> <b>M.SH.Hakimova</b>	<b>159-166</b>
<b>37</b>	<b>Shoir dunyoqarashi va ijod konsepsiyasining g‘azaldagi ifodasi</b> <b>Bo‘tayeva Nigora Abdumannonovna</b>	<b>167-173</b>
<b>38</b>	<b>MUNDARIJA</b>	<b>174-177</b>